**Sinergetika** (yunoncha synergeia – “hamkorlik”, “hamjihatik” ma’nolarini anglatadi) – sistemalarning o‘z-o‘zidan tashkil bo‘lish nazariyasi, o‘z-o‘zini boshqarish, hozirgi zamon nazariyasi, nochiziqli hodisalarni o‘rganish, dunyoni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish, tafakkur uslubi.[1] **Sinergetika** tabiatdagi murakkab tizimlarda o‘z-o‘zini tashkil qilish jarayonini, evolyutsiyaning qay bosqichida <u>xaos</u> (tartibsiz holat) ijobiy rol o‘ynashi, xaosdan tartibning paydo bo‘lishi, qonuniyatdan chetlashish holatlari (fluktuatsiya), beqaror va barqaror holat, chiziqli taraqqiyot va chiziqsiz taraqqiyot, hozirgi zamon dunyo manzarasining yangi ustuvorliklarini – muvozanatsiz beqaror dunyo

[1] Қаранг:Thomas S. Kuhn. The structure of scientific revolution. University of Chicago Press, Chicago, 1970.

[1] Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат. Тошкент.: “Шарқ”. 2004. Б. 284

konsepsiyasini, rivojlanishning nochiziqliligi va ko‘pmuqobilliligi hodisasi kabi masalalarni o‘rganadi.[2] U umumfalsafiy metodologiya sifatida strukturogenezning eng umumiy qonuniyatlarini aniqlashni o‘z predmetiga aylantirgan o‘z-o‘zini tashkil etish nazariyasidir.

**Sinergetika**dan foydalanish uchun o‘rganilayotgan tizim ochiq va nochiziq bo‘lishi, ko‘p element va tizimlardan iborat bo‘lishi (elektronlar, atomlar, molekula, to‘qima, organ, murakkab organizm, ijtimoiy guruh, shu jumladan til ham) mumkin, ular orasidagi o‘zaro ta’sir faqatgina kichik fluktuatsiyalarga, ahamiyatsiz, tasodifiy o‘zgarishlarga boy va nostabil, ya’ni notekis holatda bo‘lishi mumkin. Sinergetikaning tayanch tushunchalari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Nochiziq taraqqiyot
- Xaos
- Fluktuatsiya
- Dissipatsiya
- Attraktor
- Bifurkatsiya
- Koevolyutsiya

Morfologik tasnif muammosi tilshunoslik tarixida qariyb 200 yil davomida turli yondashuvlar asosida tadqiq etib kelindi. Lekin erishilgan natijalar o‘zidan oldingisini muayyan darajada takrorlayverganligi, ularning a priori (sof mantiqiy mulohazalar yo‘li bilan bayon etilgan) xarakter kasb etganligi va tadqiqotlarda asosan tavsifiy usulning yetakchilik qilganligi tasnif muammosining uzil-kesil hal etilmasligiga sabab bo‘ldi. Rus tilshunosi G.A.Klimov bu haqida shunday yozadi: “Zamonaviy tilshunoslikda keng e’tirof qilingan tipologik (morfologik deb ataluvchi) tasnifning talabga javob bermasligi shu bilan izohlanadiki, tasnif jarayonida mezonlar turlicha belgilangan va umumiy ma’noda lisoniy tiplar bilan ish ko‘rilgan. Aslida “tildagi tiplar”, ya’ni muayyan tillarda kuzatiladigan lisoniy

[2] Князева Е. Н. Саморефлективная синергетика// Вопросы философии. 2001. № 10 С. 106-107.

tiplar asosida ish ko‘rilishi lozim”.[2] To‘g‘ri ta’kidlanganidek, shu kungacha ishlab chiqilgan tasnif namunalarida “tildagi tiplar” alohida-alohida tadqiq etilmagan, bu esa tasniflarning o‘ta ratsionallashuviga, ko‘pgina tillardagi tipologik belgilarning yuzaga chiqmasligiga sabab bo‘lgan. Bizningcha, etalon darajasida belgilangan har bir lisoniy tip aniq tillar misolida izchil o‘rganilsa, ularning o‘ziga xos jihatlari ochib berilsa, o‘sha til materialida qay darajada kuzatilishi belgilansa, mazkur muammo ma’lum darajada o‘z yechimini topadi. Shu nuqtai nazardan fuziya lisoniy tipini o‘zbek tili tipologik belgilarining bir qirrasi sifatida tadqiq qilish bugungi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bizningcha, lisoniy tip muammosining yagona yechimi – mumtoz tilshunos olimlarning bu sohadagi buyuk ishlarini e’tirof etgan holda, tillarning struktural-tipologik belgilarini zamonaviy yondashuvlar asosida talqin va tadqiq qilishdir. Bunda J.Grinberg (1963), R.Bell (1978), N.Perkins (1980, 1989), M.Drayer (1989), R.Rijkov (1998), D.Bakker (2005), J.Song, Ye.Maslova (2006)[3] kabi olimlarning tadqiqotlaridagi miqdoriy parametrlarga asoslanadigan kvantitativ yondashuv hamda tillarning politipologik xususiyatga egaligini ochib beruvchi sinergetika falsafasini morfologik tasnifga tatbiq qilish dolzarblik kasb etadi.

“Morfologik tasnifga sinergetika tamoyillarining tatbiqi” deb nomlangan bo‘lib, unda tillarning morfologik tasnifi yangi fan paradigmasi hisoblangan sinergetika tamoyillari asosida talqin etilgan.

XX asrning 70-yillarida nemis olimi G.Xaken va belgiyalik olim, Nobel mukofoti sovrindori I.Prigojin fanga yangi metodologiyani olib kirdi. G.Xaken o‘z qarashlarini “Sinergetika”, “Tabiat sirlari” (“Тауны prirodы”), I.Prigojin esa

---

[2] Климов Г.А. К взаимоотношению генеалогической, типологической и ареальной классификаций языков // Теоретические основы классификации языков мира. – М., 1980. - С. 18.

[3] Қаранг: Maslova E. A Dynamic Approach to the Verification of Distributional Universals // Linguistic Typology. 2000. - № 4. - P. 307-333; Rijkhoff R., Bakker D. Language Sampling // Linguistic Typology. 1998. - № 2. - P. 263-314. Croft W. Typology and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. - P. 27-34.

“Xaosdan tartib” (“Poryadok iz xaosa”) nomli kitoblarida aniq dalillar bilan isbotlab berdi.

***Sinergetika*** (yunoncha synergeia – “hamkorlik”, “hamjihatik” ma’nolarini anglatadi) – tabiatdagi murakkab tizimlarda o‘z-o‘zini shakllantirish (tashkil qilish) jarayonini, evolyutsiyaning qay bosqichida xaos ijobiy rol o‘ynashi, xaosdan tartibning paydo bo‘lishi, qonuniyatdan chetlashish holatlari (fluktuatsiya), beqaror va barqaror holatlar, chiziqli va chiziqsiz taraqqiyot, rivojlanishning ko‘pmuqobilliligi kabi masalalarni o‘rganadi[1].

Sinergetika nuqtai nazaridan ijtimoiy tizimning har bir holati ***bifurkatsiya*** holatidir. Buni ijtimoiy mohiyatga ega bo‘lgan til hodisasiga ham tatbiq etish mumkin. Ya’ni hech bir tilda ma’lum tip abadiy yashamaydi, balki tarixiy taraqqiyot natijasida har bir tilda muayyan tipologik o‘zgarishlar yuz beradi. Tilda bir tip unsurlari susayib, ikkinchi bir tip kuchayib borish tendensiyasi kuzatilgan nuqta til tizimidagi bifurkatsiya holatiga misol bo‘ladi. Masalan, dalillar shuni ko‘rsatyaptiki, qadimgi ingliz tilida (Old English) fuziya tendensiyasi ustuvor bo‘lgan, lekin zamonaviy ingliz tilida (Modern English) agglyutinatsiya tendensiyasi kuchaymoqda. Xitoy, mo‘g‘ul va arab tillarining tipologik belgilarida turli innovatsiyalarning yuzaga kelayotgani[2] mazkur tillar taraqqiyotining ham bifurkatsiya holatida ekanini, keyinroq barqaror rivojlanish yo‘li – ***attraksiya*** bosqichiga o‘tishini belgilaydi.

***Fluktuatsiya*** sinergetikadagi asosiy tamoyillardan biri sanaladi, u barqaror holatdan chetlashishni bildiradi, u sistemani to‘la egallab olib, uning mavjudlik tartibini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin[3]. Tilshunoslikda fluktuatsiyaga misol sifatida singarmonizmning o‘zbek tili materialida deyarli yo‘qolib borayotganligini keltirish mumkin. Chunki singarmonizm turkiy tillar uchun xos bo‘lgan umumiy qonuniyat hisoblanadi, lekin mazkur hodisa o‘zbek tilida

---

[1] Князева Е.Н. Саморефлективная синергетика // Вопросы философии. 2001. - № 10. - С. 106-107.

[2] Қаранг: Солнцев В.М., Солнцева Н.В. Куда идёт китайский язык // Китайское языкознание:Изолирующие языки: IX международная конференция: Материалы. – М., 1998. - С. 15.; Шарбатов Г.Ш. Соотношение арабского литературного языка и современных арабских диалектов. – М., 1966. - С. 5-7.

[3] Қаранг: Капица С.П., Курдюмов С.П., Малинецкий Г.Г. Синергетика и прогнозы будущего. – М.: Рипол, 1997. - С. 24.

fluktuatsiyaga uchramoqda. Yoki o'zbek tilida boshqa tipga xos belgilar – fuzion jarayonlarning uchrashi agglyutinatsiya tipiga nisbatan chetlashish holat – fluktuatsiya sanaladi. Bu kabi misollarni til sistemasidan yana ko'plab topish mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiy sinergetika, ijtimoiy sinergetika haqida fikr yuritilar ekan, serqirra tabiatga ega bo'lgan til tizimida ham o'ziga xos ***"lisoniy sinergetika" (lingvosinergetika)*** mavjud deb mulohaza yuritish joiz bo'ladi. Bizningcha, lisoniy sinergetika tilda o'z-o'zini shakllantirishning umumiy qonuniyatlarini, lisoniy tartib va lisoniy xaos munosabatdorligini, tilning tadrijiy taraqqiyotidagi tipologik o'zgarishlar, yangilanishlar, boshqa sifat bosqichiga o'tish jarayonlarini ***bifurkatsiya*** (rivojlanishning ikkiga ayrilishi), ***polifurkatsiya*** (rivojlanishning bir necha yo'nalishga tarmoqlanishi), ***attraksiya*** (magnit qutblari kabi o'ziga tortuvchi rivojlanishning barqaror holati), ***fluktuatsiya*** (barqaror qonuniyatdan og'ish, chetlashish holati) tamoyillari asosida talqin etishga yo'naltirilgan paradigmadir. Bunga ko'ra, rivojlanish bir tartibdan ikkinchi tartibga o'tuvchi "chiziqli" yo'nalishda emas, balki u ko'pvariantlilik, tasodifiy o'zgarishlar, beqarorlik xususiyatlariga ega bo'lgan "chiziqsiz" xarakterga egadir.

Sinergetika falsafasiga ko'ra tabiatdagi, olamdagi sirli qonuniyatlardan biri bu tasodifiy jarayonlar, beqaror holatlarning tizim ichida naqadar muhim ahamiyat kasb etishi hisoblanadi. Shunga ko'ra o'zbek tilining tipologik tabiatini tavsiflashda faqat barqaror belgilarni emas, balki beqaror, fakultativ jihatlarni ham nazarda tutish joiz bo'ladi. Shu ma'noda fuziya tipini tadqiq etishni lozim deb hisobladik.

Dissertatsiyaning II bobi **“Fuziya lisoniy tip sifatida”** deb nomlangan, uch bўlimdan iborat:

“Fuziya xususida ilmiy talқinlar” deb atalgan, unda tilshunoslik tarixida shu kunga қadar fuziyaning olimlar tomonidan tadқiқ etilishi, talқinlari va terminologik luғatlardagi ta’rifi kabi masalalar taҳlil қilingan.

***Fuziya*** lisoniy tip sifatida tilshunoslikka E.Sepir tomonidan kiritilgan[1]. E.Sepir fuziyani ingliz tili misolida talqin qilgan va uni ***lisoniy texnika (linguistique technique)*** sifatida baholagan. A.N.Kononov esa turkiy tillarda agglyutinatsiya tipi ustuvor bo‘lsa ham, fuziya tendensiyasining ham kuzatilishini ko‘rsatib bergan [2]. A.Abduazizov va A.Nurmonovlar A.N.Kononovning fikrlariga hamohang holda o‘zbek tili morfonologiyasini bayon etishda fuziya elementlarini ham nazarda tutish lozimligini alohida ta’kidlaydi[3]. T.Mirzaqulov fuziyani o‘zbek tili morfemalar sintagmatikasining murakkab tabiatini isbotlovchi omillardan biri sifatida baholagan va uning mavjud ko‘rinishlarini tahlil qilgan[4].

Terminologik lug‘atlarda fuziya turlicha izohlanadi. Jumladan, O.S.Axmanova uni quyidagicha sharhlaydi: “Fuziya inglizcha *fusion,* fransuzcha *fusion*, nemischa *verschmelzung* so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zgaruvchan o‘zak bilan nostandart qo‘shimchalarning yaxlit birikib ketish jarayonini anglatadi, bu jarayonda morfemalar orasidagi chegara sinadi”[5]. D.E.Rozental, M.A.Telenkovalar esa fuziyaga shunday ta’rif berganlar: “Fuziya (fransuzcha *fusion* – singishuv, lotincha *fusio* – erib ketish ma’nolarini anglatadi) – turli tovush tarkibining o‘zgarishi hisobiga morfemalar singishuvining yuz berish jarayonidir, morfemalarning birikuv jarayonida oradagi chegaraning yo‘qolishidir”[1]. A.Hojiev fuziyani quyidagicha izohlaydi: “Fuziya (fransuzcha *fusion* – qo‘shilish, tutashish;

---

[1] Реформатский А.А. Агглютинация и фузия как две тенденции грамматического строение слова // Лингвистика и поэтика. – М., 1987. - С. 54-55.
[2] Қаранг: Кононов А.Н. О фузии в тюркских языках // Структура и история тюркских языков. – М., 1971. - С. 107.
[3] Қаранг: Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б. 78-79; Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. - Б. 21.
[4] Қаранг: Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспектлари ва уларнинг муносабати. – Хўжанд. 1992. - Б. 53-54.
[5] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1966. - С. 505.

[1] Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М.: Просвещение, 1976. - С. 516.

lotincha *fusio* – quyish, quyma) – fonema tarkibining o‘zgarishi (yonma-yon fonemalarning singishuvi) natijasida fonemalar chegarasining noaniqlashuvi, bir fonemaning har ikki morfema tarkibi uchun umumiy bo‘lib qolishidir”[2]. Demak, terminologik lug‘atlarda fuziya turlicha talqin etilgan bo‘lsa ham, mohiyat jihatidan bir nuqtaga borib taqaladi.

“Fleksiya va fuziya differensiatsiyasi” deb nomlangan bo‘lib, bu bo‘limda fleksiya va fuziya hodisalari orasidagi umumiylik va farqli jihatlar o‘z aksini topgan, fleksiya va fuziyaning lingvistik mohiyati talqin etilgan.

***Fuziya*** haqidagi qarashlar paydo bo‘lgunga qadar agglyutinatsiya tipiga zid qo‘yilgan tendensiya fleksiya hisoblangan[3]. Tilshunoslikda ***“fleksiya”*** termini ostida quyidagi ma’nolar tushunilgan:

1. Keng ma’noda grammatik ma’noning ifodalanishi va grammatik ma’noga ishora qiluvchi formant. Ko‘pgina adabiyotlarda fleksiya rus tilidagi “okonchanie” terminiga ma’nodosh termin sifatida berilgan, bunda fleksiya suffiksga zid qo‘yiladi. Bu jihatdan agglyutinativ til hisoblangan turkiy tillarda fleksiya kuchli rivojlangan bo‘lib chiqadi. Bunda fleksiya tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra agglyutinatsiya tipiga zid tip ekanligi aniq sezilmay qoladi. Shuning uchun ham E.Sepir “fleksiya” ning o‘rniga “fuziya” terminini qo‘llaydi. Fleksiyani bunday tushunishning rivoji yangi yo‘nalishning yuzaga kelishiga olib keldi: *flektiv morfologiya* (*Inflexional Morphology*)[4].

2. Tor ma’noda ablaut va umlaut sifatida tushunish (Ya.Grimm talqini)[5].

3. I.A.Boduen de Kurtene talqini. Olim fleksiyani ***monomorfizm*** (yunoncha *mono* – “bir”, *morph* – “shakl” ma’nolarini bildiradi) deya talqin qiladi. Ya’ni fleksiya so‘zga bir marta qo‘shiladi va uning ketidan affiks qo‘shib bo‘lmaydi, so‘zni fleksiya tugatadi. Olim fleksiyaga agglyutinatsiyani zid qo‘yadi. Bunga ko‘ra agglyutinatsiya ***polimorfizm*** (yunoncha *poly* – “ko‘p”, *morph* – “shakl”

---

[2] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2003. - Á. 126.
[3] Қаранг: Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 1987. - С. 235.
[4] http: // en. Wikipedia.org/wiki/inflexion.
[5] Қаранг: Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: Просвещение, 1967. - С. 280-281.

ma'nolarini bildiradi) deb baholanadi. Ya'ni agglyutinatsiya tendensiyasida so'zga affikslar birin-ketin qo'shilaveradi[6].

4. *Polifunksionallik* sifatida tushunish. Bunga ko'ra bir necha grammatik ma'no bir grammatik shakl orqali ifodalanadi. Bu *"nol fleksiya"* termini bilan ataladi.

5. E.Sepir talqini. Amerikalik tilshunos Edvard Sepir o'zining tipologik konsepsiyasida hech bir joyda flektiv til terminidan foydalanmagan. U "fleksiya" ni so'z o'zgartiruvchi (relyatsion) qo'shimchalar bilan bog'liq holda yuz beradigan fuziyaning bir ko'rinishi sifatida ta'riflaydi.

Fuziya va fleksiya tilshunoslikda juda ko'p hollarda bir-biriga sinonim terminlar sifatida talqin qilinadi. Bu esa juda ko'p tilshunoslikka oid ilmiy kitoblar, darslik va o'quv qo'llanmalarida ayni shu ilmiy xatoning takrorlanishiga olib kelgan. Aslida fuziya va fleksiya tushunchalari bir-biridan o'z navbatida farqlanuvchi hamda bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ikki yondosh tushunchalardir. Ya'ni fuziyaning ilmiy termin sifatidagi mohiyati morfemalar qo'shiluvidagi chegara signalining yo'qolishi va singishuv jarayoni bilan bog'liqdir. Fleksiya terminining lingvistik mohiyati esa asosan grammatik ma'noning ifodalanishi, relyatsion qo'shimchalarning birikish jarayoni va mana shu jarayonda yuz beradigan ayrim fonetik o'zgarishlar bilan belgilanadi.

"Fuziyaning til-nutq dixotomiyasiga munosabati" deb atalgan, unda barcha lisoniy hodisalar kabi fuziya ham til va nutq dixotomiyasi asosida talqin etilgan. Bunda fuziya til uchun xos bo'lgan belgi – uzuallik va nutq uchun xos bo'lgan belgi – okkazionallik asosida tahlil etilgan. O'zbek tilida kuzatilgan fuziya ko'rinishlarini til va nutq sathiga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib, ularni ikki guruhga ajratganmiz: 1) ***til sathida mavjud bo'lgan (uzual) me'yoriy fuziya***; 2) ***nutq sathida, shevalarda kuzatiladigan (okkazional) nome'yoriy fuziya***:

1. ***Beddi*** ⇒ *Ber+di.* Ushbu so'zda til oldi, sirg'aluvchi, jarangli, sonor undosh – "r" tovushining til oldi, portlovchi, jarangli undosh *"d"* tovushiga to'liq

---

[6] Қаранг: Зубкова Л.Г. Лингвистические учения конца XVIII – начала XX в. – М.: Издательство университета дружбы народов, 1989. - С. 197.

va kontakt assimilyatsiyalashuvi natijasida nome'yoriy regulyar fuziya yuzaga chiqqan.

2. ***Opkel*** ⇒ *olib kel.* Bu so'zda birinchi komponent tarkibidagi yarim bo'g'in ("li") diarezaga uchragan (nutq kechimida tushib qolgan) hamda birinchi so'zning so'nggi tovushi "b" keyingi komponent ta'sirida jarangsizlashgan ("b" ⇒ "p"). Bu o'zgarishlar esa nome'yoriy fuziyaning yuz berishiga olib kelgan.

Dissertatsiyaning III bobi **"Til tizimida sinergetik paradigmaning namoyon bo'lishi (fuziya misolida)"** deb nomlangan, ushbu bob 3 bo'limdan iborat:

"Tilning sinergetik paradigma asosida rivojlanishi" deb atalgan, unda til taraqqiyoti sinergetik paradigma qonuniyatlariga muvofiq yuz berishi ilmiy asoslangan. Tilshunoslikda sinergetik paradigmaga asoslangan holda V.Arshinov, Ya.Svirskiy, B.Gyorsel, I.A.German, G.G.Moskalchuk[1] kabi olimlar maxsus tadqiqotlar olib borgan. Til tizimida sinergetik paradigmaning namoyon bo'lishini quyidagilar bilan asoslash mumkin.

Til ochiq sistema sifatida ijtimoiy muhitda uzluksiz o'zaro ta'sirlashuv hisobiga taraqqiy etadi. Til tarixiy taraqqiyot jarayonida mavjud belgilarini yo'qotishi, yangi xususiyatlar kasb etishi, avvalgi holatdan tubdan farq qiluvchi yangi strukturalar hosil qilishi mumkin. Masalan, hind-evropa tillarining bundan ikki-uch ming yil oldingi kelishik fleksiyalari, fuziya bilan xarakterlanadigan murakkab morfologiyasi, kuchli sintetizm tendensiyasi kabi belgilari o'z o'rnini yangi strukturalarga – agglyutinatsiya, analitizm tendensiyalariga bo'shatib bermoqda. Bu holat tillarning dissipativ strukturalar sifatida sinergetik paradigma tamoyillariga muvofiq rivojlanish tendensiyasiga egaligini tasdiqlaydi. Demak, hind-evropa tillarida kelishiklar tizimi sinergetik paradigmaga asosan fluktuatsiyaga uchrab borgan. Asta-sekinlik bilan fluktuatsiya kelishiklar tizimiga ta'sir qilib borgan, natijada bifurkatsiya mexanizmi ishga tushgan, flektiv

---

[1] Қаранг: Аршинов В.И., Свирский Я.И. Синергетическое движение в языке // Самоорганизация и наука: опыт философского осмысления. – М., 1994; Goertzel B. Chaotic Logic: Language, Mind and Reality from the Perspective of Complex Systems Science. Plenum Press, 1994; Герман И.А. Речевая деятельность как самоорганизующаяся система (к становлению лингвосинергетической парадигмы). – Барнаул, 1999; Москальчук Г.Г. Структура текста как синергетический процесс. – Барнаул, 1999.

qurilmalar o‘rnini analitik shakllar egallab, fuziyaga nisbatan agglyutinatsiya ustuvorlik qila boshlagan.

Kreol va pijin tillar tipi ham (kreollashuv va pijinlashuv jarayoni) sinergetik paradigma asosida til kontaktlari ta’sirida shakllanishini ta’kidlash lozim. Bunda yangi kreol yoki pidjin til ***dissipatsiya*** (inglizcha *dissipate* – “tarqalish”, “sochilish” ma’nosini anglatadi; sinergetikaning asosiy tamoyillaridan biri, bunda bir strukturadan yangi strukturaning paydo bo‘lishi tushuniladi) qonuniyatiga muvofiq shakllanadi. Kreollashuv jarayonida til yangi tipologik tizimga ega bo‘ladi, fluktuatsiya, bifurkatsiya, dissipatsiya asosida til bir tartibdan boshqa bir tartibga o‘tadi, bunda ikki yoki undan ortiq tillarning korporativ ta’sirlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin shuni alohida ta’kidlash zarurki, yangi sifat bosqichiga o‘tish jarayonining qachon yuz berishini oldindan aytib bo‘lmaydi.

Tilshunoslik tarixida tilning evolyutsion taraqqiyoti va dinamikasi xususida turli xil qarashlar mavjud. Dastlab XIX asrda uch taraqqiyot fazasi – ***amorflik*** ⇒ ***agglyutinativlik*** ⇒ ***flektivlik*** bosqichlari ko‘rsatildi. XX asrga kelib tillarning stadial taraqqiyoti ***flektivlik***⇒ ***agglyutinativlik*** ⇒ ***amorflik*** tarzida yuz beradi deb belgilandi[1]. Mazkur masalaga sinergetik paradigma nuqtai nazaridan yondashilsa, uning ayrim muammoli jihatlariga yechim topiladi. Lisoniy tiplarning taraqqiyotini soddadan murakkabga qarab boruvchi “chiziqli” yo‘nalishda deb talqin qilish, bizningcha, bir tomonlama yondashuv hisoblanadi. Lisoniy tiplardagi o‘zgarishlarni kuzatadigan bo‘lsak, ularning ***“nochiziq”*** taraqqiyot traektoriyasiga ega bo‘lishi ayon bo‘ladi. Mazkur holatni qiyshiq sinusoidga o‘xshatish mumkin, tadrijiy ravishda u “egri chiziq” dinamikasi bo‘yicha taraqqiy etadi.

Fuziya lisoniy tipi turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili uchun noustuvor holat sanaladi, lekin ushbu beqarorlik til sistemasi uchun ahamiyatsiz emas. Chunki lingvosinergetik paradigmada ayni shunday fakultativ jarayonlar, beqaror holatlar juda muhim ahamiyatga molik hisoblanadi, ularni yangi tartib va strukturalarning shakllanishiga zamin yaratadi deya ijobiy baholash mumkin. Bu haqida Ye.N.Knyazeva shunday yozadi: “Beqarorlik ochiq sistemalarda tubdan

---

[1] Қаранг: McMahon. Understanding of Language Change. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. - P. 21.

yangilanishlarga olib keladi. Umuman olganda, agar beqarorlik bo‘lmasa, demak, taraqqiyot ham yo‘q. Beqarorlik rivojlanishni bildiradi yoki boshqacha aytganda, taraqqiyot beqarorlik, tasodifiy holatlar, fluktuatsiyalar asosida amalga oshadi”[1]. Shu ma’noda tilda ham lisoniy tiplar uzluksiz tarzda barqarorlikdan beqarorlikka yoki, aksincha, almashinib turadi.

“O‘zbek tilida fuziya ko‘rinishlari fluktuatsiya sifatida” deb atalgan bo‘lib, u o‘z ichida 3 qismga bo‘linadi:

“Regulyar fuziya (agglyutinatsiya jarayonidagi fuziya)” nomi ostida bo‘lib, unda o‘zbek tili misolida agglyutinatsiya jarayoni Yevropa olimlari ta’kidlaganidek sodda, “mexanik yelimlash” xarakterida emasligi aniq misollar bilan isbotlangan, morfemalar “chok”idagi fuzion jarayonlar tahlil etilgan.

Agglyutinatsiya jarayoni hamisha silliq, o‘zgarishlarsiz kechavermaydi. Ba’zan agglyutinatsiya zanjiridagi muayyan halqalar “uzilib” qolishi mumkin, natijada o‘zakning fonetik tarkibida ayrim o‘zgarishlar yuz beradi, o‘zak morfema va affiksal morfema orasidagi ulanish “chok”i xuddi fuzion tillardagidek sezilmas holga kelib qoladi. Ayni shunday holat agglyutinatsiya jarayonidagi fuziya yoki regulyar fuziya deb nomlanadi. Masalan, ***“sarg‘ay”*** so‘zidagi o‘zgarishni tahlil etaylik: a) o‘zak morfemaning ikkinchi bo‘g‘ini tarkibidagi “i” unlisi dastlab intervokal holatda reduksiyaga uchraydi, so‘ngra tushib qoladi (sinkopa qonuniyatiga muvofiq); b) o‘zak morfemaning so‘nggi tovushi “q” unli tovushning ta’sirida “g‘” tovushiga o‘tishi asosida akkomodatsiya hodisasi yuz bergan.

Biz regulyar fuziyaga doir misollarni fonetik hodisalar bilan aloqadorlikda tahlil etib, ma’lum ko‘rinishlarini umumlashtirib quyidagicha tasnifladik:

I. Assimilyatsiya bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan fuziya:

1. ***adash*** ⇒ *at* + - *dash*. Ushbu so‘zda avvalo singarmonizm qonuniyati bo‘rtib ko‘rinadi, “at” so‘zidagi unliga mos holda “-dosh” qo‘shimchasining “-dash” varianti qo‘shiladi. O‘zak “at” affiks “-dash” ga birikish jarayonida “t”

---

[1] Князева Е.Н. Случайность, которая творит мир // В поисках нового мировоззрение: И.Пригожин, Е.Н.Рерихи. – М.: Знание, 1991. - С. 18.

undoshi artikulyatsiya o‘rni, usuli va akustik belgisi jihatidan moslashib, “d” undoshi bilan assimilyatsiyalashuvi yuz bergan.

2. ***bitta*** ⇒ *bir* + - *ta*. Bu so‘zda kontakt hamda to‘liq assimilyatsiya hodisasi yuz bergan. Bu o‘rinda titroq, til oldi, sonor “r” undoshi portlovchi, til oldi, jarangsiz “t” undoshi bilan ham artikulyatsiya o‘rni, usuli va akustik belgisi jihatidan moslashib bir xil bo‘lib olgan.

II. Sinkopa asosida yuzaga kelgan fuziya.

1. Unli tovushning tushib qolishi natijasida yuzaga kelgan fuziya: ***yig‘la*** ⇒ *yig‘i* + - *la*. Bu so‘zda o‘zakka so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilgandan so‘ng o‘zak morfema tarkibidagi “i” unlisi sinkopaga uchraydi. Bu esa o‘zak va qo‘shimcha orasidagi ulanish “chok”ining singib ketishiga olib kelgan.

2. Undosh tovushning tushib qolishi natijasida yuzaga kelgan fuziya: ***susay*** ⇒ *sust* + - *ay*. Ushbu so‘zda “sust” o‘zagiga fe’l yasovchi qo‘shimchaning qo‘shilishi natijasida o‘zak tarkibidagi “t” undoshi tushib qolgan, oqibatda o‘zak ajralmas holga, agglyutinatsiya choki sezilmas holga kelgan.

3. Bir necha tovushning tushib qolishi natijasida yuzaga kelgan fuziya: ***kichkina*** ⇒ *kichik* + - *gina*. Ushbu so‘zda “kichik” o‘zagining fonetik tarkibi o‘zgarishga uchragan, ya’ni kichraytirish-erkalash shaklini hosil qiluvchi qo‘shimchaning o‘zakka qo‘shilishi jarayonida “i” hamda “k” undoshlari sinkopaga uchragan, natijada o‘zak morfema va affiksal morfema oralig‘idagi chegaraning yo‘qolishiga sabab bo‘lgan.

III. Umlaut asosida yuzaga kelgan fuziya: ***angla***⇒ *ong* + - *la*. Ushbu so‘zda “ong” o‘zagiga fe’l yasovchi qo‘shimchaning qo‘shilish jarayonida o‘zakning birinchi tovushi “o” umlautga uchraydi, ya’ni keyingi bo‘g‘indagi “a” tovushi o‘zak morfemani o‘ziga moslashtirib olgan. Bunda moslashuv o‘ngdan chapga qarab, singarmonizmga teskari proporsional holatda yuz bergan. Bu esa o‘zakning diskret holda ajralib turishini qiyinlashtirgan va regulyar fuziyaning yuzaga chiqishiga sabab bo‘lgan.

“Noregulyar fuziya” deb atalgan bo‘limda ko‘proq so‘zlarning o‘zak tarkibidagi ichki o‘zgarishlari diaxron aspektda tadqiq etilgan, so‘zlarning etimoniga qarab fuzion jarayonlar aniqlangan va tahlil qilingan.

Noregulyar fuziyani yuzaga chiqaruvchi lisoniy omillar quyidagicha umumlashtirildi:

I. Ablaut asosida yuzaga chiqqan noregulyar fuziya. Bunda o‘zakning tarkibidagi unli tovushlarning almashinuvi bilan bog‘liq holda o‘zgarish yuz beradi: ***“aka”*** va ***“uka”*** so‘zlari yoshga ko‘ra bir-biri bilan oppozitsiyada turadi, lekin har ikki so‘z ham etimologik jihatdan umumiy yaqinlikka ega. Ular tarixiy jihatdan bir umumiy o‘zakka borib taqaladi. Keltirilgan so‘zlarning dastlabki tovushlari – “a” va “u” tovushlarining ablauti o‘zakning urchishiga va noregulyar fuziyaga sabab bo‘lgan.

II. Ichki fleksiya asosida yuzaga chiqqan noregulyar fuziya. Bunda ichki fleksiya noregulyar fuziyaning yuzaga chiqishini ta’minlovchi omil sifatida baholanadi. ***“Ajrim”*** va ***“ayrim”*** so‘zlaridagi o‘zgarish bunga tipik misol bo‘la oladi. Ajrim – ikki tomonni kelishtiruv qarori. Bu ot asli *ayыr* fe’lining tarkibidagi “y” undoshi “j” undoshiga almashuvi bilan yuzaga kelgan *ajыr* shakliga *-ыm* qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan, shundan keyin ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan, “a” unlisi “ä” unlisiga almashgan: *ayыr* $\Rightarrow$ *ajыr + ыm* $\Rightarrow$ *ajыrim* $\Rightarrow$ *ajrыm* $\Rightarrow$ *äjrim.* Ayrim – “alohida” ma’nosini anglatadi. Bu sifat eski o‘zbek tilida *ayыr* fe’lidan *-ыm* qo‘shimchasi bilan yasalgan, qo‘shimcha qo‘shilgandan so‘ng ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan, keyinchalik “a” unlisi “ä” unlisiga almashgan, “ы” unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: *ayыr + ыm* $\Rightarrow$ *ayыrыm* $\Rightarrow$ *ayrыm* $\Rightarrow$ *äyrim».*[1] Bu so‘zning etimologik tahlilida shunga mos fikrni M.Mirtojiev ham tasdiqlaydi.[2] So‘zlarning etimonidan ko‘rinib turibdiki, ularning kelib chiqishi bir manbaga borib taqaladi. Lekin keyinchalik leksemalarning semantik taraqqiyoti natijasida ular orasidagi aloqadorlik bir oz sezilmas holga kelgan. Bunda leksemalar o‘zagininng ichki

---

[1] Қаранг: Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. - Б. 21-24.
[2] Қаранг: Миртожиев М. Ажра, айир, айил феъллари генезиси ва улар уяси // Ўзбек тили ва адабиёти, – Тошкент, 2000. - №1. - Б. 60-62.

tarkibida “j” hamda “y” tovushlari almashinuvi ta’sirida ichki fleksiya yuz bergan, o‘zak tarkibining sinishi esa noregulyar fuziyani yuzaga chiqargan.

III. Tashqi fleksiya asosida yuzaga chiqqan noregulyar fuziya:

1. ***“Yozmoq”*** va ***“yoymoq”*** (*“yoz”*omonim so‘zining ma’nolari) so‘zlari tarixiy jihatdan polisemantik so‘zlar bo‘lgan. Semantik taraqqiyot natijasida ma’nolar orasidagi ichki bog‘liqlikning yo‘qolishi natijasida ular omonimlarga aylangan. “Z” va “y” tovushlarining alternatsiyasi ta’sirida ushbu so‘zlarda tashqi fleksiya asosida noregulyar fuziya kuzatilgan.

2. ***“Arch”*** va ***“art”*** so‘zlari bir o‘zakning tashqi fleksiyaga uchrashidan hosil bo‘lgan ikki fe’l leksemadir. Ularning etimoni bir so‘z – *“ары”* so‘zi bilan bog‘liq. Bu xususda “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” da shunday izoh berilgan: “*Art* so‘zi qadimgi turkiy tildagi “poklan” ma’nosini anglatgan *ары* fe’lidan -*t* orttirma nisbat qo‘shimchasi bilan hosil qilingan, keyinchalik ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan. *Arch* so‘zi ham *ары* so‘zi bilan bog‘lab tushuntiriladi”.[3] Bu yerda o‘zakning eksternal qismida “ch” va “t” tarzida tashqi fleksiya yuz bergan.

IV. Metateza asosida yuzaga chiqqan noregulyar fuziya:

1. ***Kiprik*** so‘zi tarixan morfemalarga ajralgan, hozirda esa monolit holga kelib qolgan. Bunda so‘zning etimologik tahlili masalaga oydinlik kiritadi. “*Kiprik* so‘zi qadimgi turkiy tilda “ko‘p tikan” ma’nosini anglatgan *kirpi* otidan kichraytirish ma’nosini ifodlovchi -*k* qo‘shimchasi bilan hosil qilingan, keyinchalik *rp* undoshlari o‘rin almashuvi yuz bergan: *kirpi + k = kirpik = kiprik*.[4] Demak, bu so‘zda kontakt metateza hodisasi natijasida o‘zak ajralmas holga kelgan. Bu esa noregulyar fuziyaning yuzaga chiqishiga olib kelgan.

2. ***Paypoq*** so‘zida distant metateza hodisasi yuz bergan, ya’ni so‘zning ikkinchi bo‘g‘inidagi “p” tovushining “q” tovushi bilan o‘rin almashinuvi yuz bergan: pay + qop = pa**yp**oq.[5] Bunda so‘zning birinchi qismi tarkibidagi “p” tovushi keyingi qismni o‘z tuzilishiga moslashtirib olgan, o‘zaro ta’sir natijasida

[3] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. - Б. 32.
[4] Қаранг: Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. - Б. 209-210.
[5] Қаранг: Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Университет, 1998. - Б. 86-87.

so‘zning ikkinchi qismidagi auslautdagi “p” tovushi inlautdagi “q” bilan pozitsiyani o‘zgartirgan. Bunday tovush moslashuvini yanada aniqroq tushunish uchun *qo‘lqop* so‘zi bilan *paypoq* so‘zini taqqoslab ko‘raylik. Har ikki so‘zda ham anlautdagi tovushlar dominantlik qilib, keyingi tovushlarning pozitsiyasini o‘ziga moslashtirib olmoqda – qo‘lqop so‘zida **q** →**q** ga, paypoq so‘zida esa **p**→**p** ga yaqin pozitsiyada turibdi. Buning sababi, bizningcha, talaffuzda qulaylikka erishish tendendiyasidir, chunki *payqop* deb talaffuz qilishdan ko‘ra *paypoq* deb talaffuz qilish oson va qulayroq.

“Sandhi holatdagi fuziya (kompozitsiya jarayonidagi fuziya)” deb nomlangan, bunda ikki mustaqil leksemaning birikish jarayonida chegaraning yo‘qolishi, singishuv jarayoni misollar bilan tahlil etilgan:

1. ***Og‘ayni*** *⇒ og‘a + ini.* Ushbu so‘zda yuz bergan fuzion jarayon “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” da shunday tushuntirilgan: “Bu so‘z o‘zbek tilida *âg‘ä* va *ini* so‘zlaridan tuzilgan *âg‘ä-ini* juft so‘zining yaxlitlanishi bilan yuzaga kelgan, yaxlitlab talaffuz qilish munosabati bilan *ini* qismi boshlanishidagi “i” unlisi “y” undoshiga almashgan”.[1] *“Og‘ayni”* so‘zida ikkinchi qismning birinchi bo‘g‘ini reduksiyaga uchraydi va o‘rtada tutashtiruvchi qism paydo bo‘ladi, natijada sandhi qo‘llangan ikki so‘z o‘rtasidagi chegara sezilmas holga kelgan.

2. ***Bugun*** *⇒ bu + kun.* Ushbu so‘zning ikkinchi komponentidagi «k» tovushi intervokal holatga tushib, jaranglilashuv hodisasi yuz bergan («g» ga almashgan), ikki mustaqil leksemani ajratib turuvchi chegara signali kompozitsiya jarayonida yo‘qolgan, oqibatda sandhi holatdagi fuziya (kompozitsiya jarayonidagi fuziya) yuz bergan.

“Ingliz tili bifurkatsiya nuqtasida: fuziya va agglyutinatsiya tendensiyasi” deb atalgan, unda fuzion til sanalgan ingliz tili misolida boshqa morfologik tip – agglyutinatsiya kuzatiladigan o‘rinlar tahlilga tortilgan. Biz fuzion tilda agglyutinatsiya, agglyutinativ tilda fuziya uchrashini tahlil etish bilan tillarning politipologik xarakterga ega ekanligini, tillarning sinergetik paradigma asosida rivojlanishini amaliy jihatdan isbotlashni maqsad qilganmiz. Til taraqqiyotining

[1] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. - Б. 265.

keyingi davrlarida ingliz tilida agglyutinativ - analitik belgilarning kuchayish jarayoni kuzatilmoqda.[2] Buni faktografik ma'lumotlar ham tasdiqlamoqda. Ingliz tilida agglyutinatsiya tipi quyidagi o'rinlarda faol uchraydi:

I. *So'z yasalishi jarayonidagi agglyutinatsiya*:

1. Ot yasovchi qo'shimchalarda: *- er: read + er = reader; - ness: kind + ness = kindness;- hood: child + hood; - dom: king + dom = kingdom; - ship: friend + ship = friendship.*

2. Sifat yasovchi qo'shimchalarda: *- able: change + able = changeable; - al: form + al = formal; - ent: insist + ent = insistent; - ful: doubt + ful = doubtful; - ish: child + ish = childish; - less: hope + less = hopeless; - ous: danger + ous = dangerous*.

3. Ravish yasovchi qo'shimchalarda: *-ly: fluent + ly = fluently;-wise: clock +kwise = clockwise; -ward: down + ward = downward; home + ward = homeward.*

4. Fe'l yasovchi qo'shimchalarda*: -en: deep + en = deepen; ize: symbol + ize = symbolize; modern + ize = modernize;ideal + ize = idealize.*

5. Prefikslar (old qo'shimchalar):[1] *anti-: anti + freeze =antifreeze; bi-: bi + lingual = bilingual; co-: co + author = co-author; counter-: counter + attack = counter-attack; dis-: dis + satisfaction = dissatisfaction; en-: en + rich = enrich; hyper-: hyper + text = hypertext; inter-: inter + national = international; mis-: mis + understand = misunderstand; non-: non + smoker = nonsmoker; over-: over + estimate = overestimate; poly-: poly + syllabic = polysyllabic; post-: post + war = postwar; pre-:pre + school = preschool; re-: re + write = rewrite; sub-: sub + way = subway; ultra-: ultra + violet = ultraviolet; un-: un + do = undo; under-: under + line = underline.*

II. *Forma yasalishi jarayonidagi agglyutinatsiya*:

---

[2] Қаранг: Плоткин В.Я. Строй английского языка. – М.: Высшая школа, 1989. - С. 34; Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983. - С. 172; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б. 78-81.

[1] Қаранг: Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986. - С. 103-104.

6. Otlarning ko‘plik shakli -s(-es) qo‘shimchasi yordamida agglyutinatsiya usulida hosil qilinadi, o‘ndan ortiq otlargina fuziya asosida grammatik ko‘plik ma’nosini anglatadi. Bunda fuziyaga nisbatan agglyutinatsiya tendensiyasi ustuvorlik qiladi: *book + s = books; day + s = days* kabi.

7. Qaratqich kelishigi (Genitive case): *John’s car – Jonning mashinasi.*

8. Sifat va ravishlarda daraja hosil qiluvchi qo‘shimchalar -er va -est formantlari: *short + er = shorter, soft + est = softest.*

9. Son hosil qiluvchi formantlar: *four + teen = fourteen, nine + ty = ninety.*

10. Fe’llarda noaniq hozirgi zamon (Present simple tense) ning III shaxs birlik shakli -s (es) qo‘shimchasi: *work + s = works, discuss + es = discusses.*

11. Fe’llarning davom zamon (Continuous tense form) shakli: *read + ing = reading, rain + ing = raining.*

12. Ingliz tilida to‘g‘ri fe’llarning (regular verbs) o‘tgan zamon shakli agglyutinatsiya tendensiyasi asosida so‘zga qo‘shiladi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, ingliz tili leksikonidagi fe’llarning asosiy qismini to‘g‘ri fe’llar tashkil etadi, noto‘g‘ri fe’llar 250 dan ortiq. Demak, ingliz tilida fe’llarning o‘tgan zamon shaklini hosil qilishda agglyutinatsiya tendensiyasi fuziyaga nisbatan asosiy o‘rinni egallaydi. 2007 yilda nashr etilgan “Oxford Dictionary Thesaurus & Wordpower Guide” lug‘atida noto‘g‘ri fe’llar **271** ta ko‘rsatilgan. Ulardan 140 tasi sof holatda fuziyaga uchragan noto‘g‘ri fe’llar, 87 tasi fuziyaga uchragan fe’llarning prefiksatsiya (*for-, mis-, out-, re-, un-* kabi old qo‘shimchalarni 140 ta fe’lning ayrimlariga qo‘shilishi asosida) usuli asosida qayta takrorlanishidan hosil bo‘lgan noto‘g‘ri fe’llar, 44 tasining ayrimlari suppletiv usul bilan o‘zgarishga uchragan, ayrimlari agglyutinatsiya asosida birikkan, ayrimlari hech qanday o‘zgarishga uchramagan noto‘g‘ri fe’llardir. Demak, ingliz tilida agglyutinatsiya fuziya tendensiyasiga qaraganda dominantlik qilmoqda.

# XULOSA

Sinergetika yangi fan paradigmasi sifatida dunyoning sirli manzarasini tushuntirib bermoqda, bunda xaos, dissipatsiya, bifurkatsiya, fluktuatsiya, nochiziq taraqqiyot, koevolyutsiya kabi qonuniyatlar murakkab sistemalarning, xususan, til sistemasining yashash va rivojlanish sabablarini izohlab bermoqda. Har qanday tilda ustuvor lisoniy tip bilan bir qatorda boshqa lisoniy tiplarning ham kuzatilishi tildagi “sinergetika” ni anglatadi. Negaki, sinergetika yunoncha synergeia – “hamkorlik”, “hamjihatik” ma’nolarini anglatadi. Bundan ko‘rinadiki, har bir til bir necha tiplarning ijobiy ma’nodagi “hamkorligi” asosida taraqqiy etadi.

1. Tilda har xil lisoniy va nolisoniy ta’sirlarning tarqalishi natijasida yangi belgilar, morfologik va sintaktik strukturalar yuzaga keladi. Xususan, turkiy tillarda fuziya unsurlarining mavjudligi, hind-evropa tillarida agglyutinatsiya, analitizm tendensiyalarining uchrashi, xitoy, vetnam tillarida izolyatsiya bilan yonma-yon agglyutinatsiya tendensiyasining rivojlanayotganligi, ikki yoki undan ortiq tillarning korporativ ta’sirlashuvi natijasida kreol va pidjin tillarning shakllanayotganligi kabi dalillar tilning dissipativ tizim ekanligini, har xil effektlar hisobiga sinergetik paradigma asosida taraqqiy etishini ko‘rsatadi. Buni o‘ziga xos ***lingvosinergetik paradigma*** deb nomlash mumkin.

3. Tilda lisoniy tiplarning stadial taraqqiyoti “nochiziq” taraqqiyot traektoriyasiga ega bo‘ladi, ya’ni bir lisoniy tip muayyan vaqt dominantlik qiladi, tarixiy taraqqiyot jarayonida u sinergetikaning fluktuatsiya, bifurkatsiya, polifurkatsiya qonunlari asosida “egri chiziq” dinamikasi bo‘yicha rivojlanadi. Muayyan vaqt oralig‘ida avvalgi dominant lisoniy tip o‘rnini fakultativ lisoniy tip egallaydi, keyinchalik ushbu tip ham boshqa lisoniy tipga yon beradi. Shu tarzda lisoniy tiplar barqarorlik-beqarorlik, ustuvorlik-noustuvorlik, tartib-tartibsizlik kabi sinergetik paradigmaning asosiy tamoyillari asosida rivojlanish traektoriyasiga ega bo‘ladi.

4. Sinergetik paradigma nuqtai nazaridan tillarning morfologik qurilishi, tipologik belgilari xalqlarning tafakkur tarzi, dunyoqarashi va ratsional rivojlanganlik darajasini ko‘rsatuvchi mezon emas. Ixtiyoriy lisoniy tip ustuvor bo‘lgan tilda gaplashuvchi xalqlar insoniyat tarixida yuksak sivilizatsiya va madaniyat yaratganlar. Tarixning ma’lum bosqichidagi “madaniy tanazzul” ni tillarning tipologik xususiyatlari asosida isbotlashga urinish masalaga g‘ayriilmiy (***kvazifan, psevdofan***) yondashuv sanaladi.

5. Kvantitativ yondashuv asosida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tili uchun sintetizm, agglyutinatsiya, suffiksatsiya, relyatsiya tendensiyalari dominant belgilar, analitizm, fuziya, prefiksatsiya tendensiyalari esa fluktuatsiya hisoblanadi. Lekin shuni ham ta’kidlash joizki, ushbu holat tarixiy taraqqiyot jarayonida sinergetik paradigma qonunlariga muvofiq o‘zgarish dinamikasini namoyon qiladi, bunda yuqoridagi belgilarning indekslari farqlanishi mumkin.

6. Tilshunoslik tarixida fleksiya va fuziya hodisalari o‘zaro ekvivalent tushunchalar degan xato fikr hukmron bo‘lib kelmoqda. Aslida ular orasida nozik farq mavjud. Fuziya haqidagi qarashlar shakllangunga qadar “fleksiya” fuziya termini ostidagi ma’noga ega bo‘lgan. Fleksiya termini grammatik ma’noning turli xil usullar yordamida ifodalanishiga nisbatan, fuziya termini esa morfemalar orasidagi “singishuv” jarayoniga nisbatan ishlatilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

7. Tadqiqot jarayonida o‘zbek tilida fuziyaning mavjud ko‘rinishlari sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatildi:

- ***Agglyutinatsiya jarayonida yuz beruvchi fuziya (regulyar fuziya)*** – agglyutinatsiya zanjiridagi muayyan xalqalarning “uzilib” qolishi natijasida o‘zakning fonetik tarkibida ayrim o‘zgarishlar yuz berishi, o‘zak morfema va affiksal morfema orasidagi ulanish choki xuddi fuzion tillaradagiday sezilmas holga kelib qolishi demakdir.

- ***Noregulyar fuziya*** – o‘zak morfemaning o‘zidagi ichki o‘zgarishlarni qamrab oladi. U uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zak tarkibining sinishi, fonetik tarkibining o‘zgarishi bilan xarakterlanadi.

- ***Kompozitsiya jarayonida yuz beradigan fuziya (sandhi holatdagi fuziya)*** – so‘zning ichki formasini yo‘qotish natijasida, ya’ni morfemalar orasidagi chegaraning yo‘qolishi natijasida ro‘y beradi. Demak, fuziya tendensiyasi faqatgina o‘zak va qo‘shimchalar orasidagi chegaraning yo‘qolishi natijasida yuzaga kelgan “singib ketish” jarayonini emas, balki mustaqil ma’no qimmatiga ega bo‘lgan ikki morfemaning bir-biriga “singib ketish” ini ham ifodalaydi deb tushunish lozim.

8. Kuzatishlarimiz shuni tasdiqlaydiki, o‘zbek tili misolida quyidagi fonetik va morfonologik o‘zgarishlar “fuziya” ning yuzaga chiqishini ta’minlaydi: a) fonetik hodisalar: assimilyatsiya, akkomodatsiya, sinkopa, aferezis, eliziya, sinerezis, gaplologiya, metateza; b) morfonologik o‘zgarishlar: ablaut, umlaut, ichki fleksiya, tashqi fleksiya, soddalashuv.

9. Fuziyaning adabiy (standart) til va jonli nutq (sheva) da qay darajada kuzatilishi, ularning bir-biriga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqqan holda ilmiy xulosalar chiqarish ham ilmiy ahamiyatga ega. O‘zbek tilida uchraydigan fuziyani til va nutq sathiga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqqan holda quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

a) til sathida mavjud bo‘lgan (uzual) me’yoriy fuziya;

b) nutq sathida yashaydigan (okkazional) nome’yoriy fuziya.

10. O‘zbek tilida fuziyaning uchrashiga sabab bo‘luvchi omillar, bizningcha, quyidagilardir:

a) singarmonizm agglyutinatsiya texnikasini ta’minlovchi va mustahkamlovchi (sementlovchi) omil sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki bunda morfemalar orasidagi chegara buzilmaydi, balki chap qism (o‘zak) va o‘ng qism (qo‘shimcha) orasidagi chegara yanada mustahkamlanadi. U o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotida kuzatilgan, lekin hozir singarmonizm o‘zbek tilida barqaror fonetik qonuniyat emas, u ayrim o‘zak so‘zlardagina saqlanib qolgan va shevalarda ham singarmonizm izlari uchraydi. Singarmonizmning o‘zbek tilida yo‘qolib borayotganligi fuziya tendensiyasining tezlashishiga olib keladi;

b) o‘zbek tilida singarmonizmga teskari yo‘nalishda bo‘lgan umlaut hodisasining mavjudligi morfemalar orasidagi chegaraning buzilishiga olib keladi va fuziyani yuzaga chiqaradi;

v) fonetik tejash prinsipi bo‘yicha ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda ayrim bo‘g‘inlarni va tovushlarni tushirib qoldirish va bu bilan kam fonatsion energiya sarflashga intilish tendensiyasi o‘zbek tilida fuziyaning yuzaga chiqishiga olib keladi;

g) talaffuz qulayligi nuqtai nazaridan o‘zak va qo‘shimchalar tarkibida ayrim o‘zgarishlar yuzaga keladi. Demak, talaffuzda noqulaylik (hiatusa) ni yuzaga chiqaruvchi omillarning yo‘qotilishi hisobiga ham fuziya yuz beradi.

11. Agglyutinativ til hisoblangan o‘zbek tilida fuziya unsurlari uchraganidek, fuzion til hisoblangan ingliz tili materialida ham agglyutinatsiya unsurlari kuzatiladi. Mavjud misollarni umumlashtirib, ingliz tilidagi agglyutinatsiya unsurlarini shartli ravishda ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin: a) so‘z yasalishi jarayonida uchraydigan agglyutinatsiya; b) forma yasalishi jarayonida uchraydigan agglyutinatsiya.

12. Zamonaviy ingliz tilida (Modern English) fuziya tendensiyasiga qaraganda agglyutinatsiya tendensiyasining kuchayganligi kuzatilmoqda. Bu shuni bildiradiki, hech bir tilda muayyan tip o‘zgarishsiz yashamaydi, balki tarixiy taraqqiyot natijasida har bir tilda muayyan tipologik o‘zgarishlar yuz beradi, tilda bir tip unsurlari susayib, ikkinchi bir tip kuchayib borish tendensiyasi kuzatilgan nuqta til tizimidagi bifurkatsiya holatiga misol bo‘ladi. Masalan, qadimgi ingliz tilida (Old English) fuziya ustuvor bo‘lgan, lekin zamonaviy ingliz tilida (Modern English) agglyutinatsiya tendensiyasi kuchaymoqda. Demak, ingliz tilidagi fuzion – agglyutinativlik belgisi uning bifurkatsiya bosqichida ekanligini ko‘rsatadi.

13. Sinergetika bugungi kunda ***“metafan”*** (yunoncha metha – “keyin”, “barcha fanlardan keyingi”) vazifasini bajarishi lozim, undagi qonuniyatlar universallik kasb etib, uni barcha fanlar “o‘ziniki” hisoblab, ulardan foydalanadi. Amerikalik olim T.Kun o‘zining “Structure of scientific revolution” (“Ilmiy inqilob strukturasi”) asarida yozishicha, ilm-fandagi inqilob hodisaga

yondashuvning o‘zgarishi va paradigmaning yangilanishi bilan o‘lchanadi. Shu ma’noda sinergetikani XX–XXI asrlar fan paradigmasi sifatida deyarli barcha fan sohalari, shuningdek, tilshunoslik uchun ham metodologik asos sifatida qabul qilish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008 y.
2. Abdulhamid Nurmonov, Azamatjon Rahimov Linvosinergetikaga kirish Toshkent Akademnashr 2012.
3. Abdulhamid Nurmonov Tanlangan asarlar 1 jild Toshkent Akademnashr 2011
4. Abdulhamid Nurmonov Tanlangan asarlar Toshkent Akademnashr 2 jild 2011
5. Abdulhamid Nurmonov Tanlangan asarlar Toshkent Akademnashr 3 jild 2011
6. Abulhamid Nurmonov, Sharifa Iskandarova Tilshunoslik nazariyasi Fan nashriyoti
7. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. “Fan” nashriyoti, 2008 y.
8. Nurmonov A. Ўzbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi.
9. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. T.: “Fan”. 2008y.
10. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Toshkent: 1996 y.
11. Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
12. Jamolxonov H., Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent, “Talqin - 2005”.
13. Abduazizov A.A. Supersegment fonologiya metodlari.
14. Abdullaev G‘., Falsafaning tarixiy rivojlanish bosqichlari. Andijon., 1996 y.
15. Abdullaev F.A. Fonetika xorezmskix govorov. -Toshkent: Fan,1967.
16. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, 1983

17. Avanesov R.I. Kratchayshaya zvukovaya yedinitsa v sostave slova i morfemы// Istoriya... yazыkoznaniya. Xrestomatiya. M.: Vыsshaya shkola, 1988.
18. Amirova T.A., Olxovikov B.A., Rojdestvenskiy Yu.V. Ocherki po istorii lingvistiki. 1975.
19. Afzalov Sh. Ўzbek tilining parkent shevasi. Ўzbek dialektologiyasidan materiallar. T.I. Toshkent:O‘zb.SSR FA nashriyoti, 1957.
20. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. M., 1966.
21. Baskakov N.A., Sodikov A.S, Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. Toshkent: O‘kituvchi, 1979.
22. Beryozin F.M., Golovin B.N. Obщee yazыkoznanie. M.: Prosveщenie, 1979.
23. Blumfild L. Yazыk. M., 1968 (Ingl. tilidagi nashri -1933)
24. Boduen de Kurtene I.A. Opыt teorii foneticheskix alternatsiy. Izbrannыe trudы po obщemu yazыkoznaniyu. M.,1963. T.1.
25. Boduen de Kurtene I.A. Vvedenie v yazыkoznanie. Izbrannыe trudы po obщemu yazыkoznaniyu, M., 1963. T.2.
26. Boduen de Kurtene I.A. Fonema. Izbrannыe trudы po obщemu yazыkoznaniyu, M., 1963. T.1.
27. Gunnar Skirbekk, Nils Gile, Falsafa tarixi (tarjima), 2002 y
28. Yelmslev L. Metod strukturnogo analiza v lingvistike // Zveginsev V.A. Istoriya yazыkoznaniya XIX i XX vekov v ocherkax i izvlecheniyax. Chast II.
29. Jamolhonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. O‘z.R.Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti 2009 y.
30. Juravlev V.K. Diaxronicheskaya fonologiya. M.: Nauka. 1986.
31. Juravlev V.K. Diaxronicheskaya fonologiya. M.:Nauka, 1986.
32. Zveginsev V.L. Istoriya yazыkoznaniya XIX i XX vekov v ocherkax i izvlecheniyax. Chast I.M., 1960.
33. Matusevich M.I. Sovremennыy russkiy yazыk . Fonetika. M.: Prosveщenie, 1976.

34. Nabieva D. O‘zbek tilining turli sathlarida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo‘lishi. T.: 2005y.
35. Polivanov Ye. D. Leksii po vvedeniyu v yazыkoznanie i oбщey fonetike // Istoriya... yazыkoznaniya. Xrestomatiya M.: Vыsshaya shkola , 1988.
36. Reformatskiy A.A. Iz istorii otechestvennoy foonologii. M., 1970.
37. Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh. Ўzbek dialektologiyasi. Toshkent, 1962.
38. Reshetov V.V. Uzbekskiy yazыk.I.Fonetika.-Toshkent:Uchpedgaz,1959.
39. Sepir E. Yazыk. Vvedenie v izuchenie rechi. M.-L., 1934 (Ingl. tilidagi nashri - 1921)
40. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. T.: “O‘qituvchi”. 1981y.
41. Stepanov Yu.S. Osnovы oбщego yazыkoznaniya. M.: Prosveщenie, 1975.
42. Tenishev E.R. Salarskiy yazыk. M: Vost.liter., 1963.
43. Trubetskoy N.S. Osnovы fonologii (russk. per.) M., 1969.
44. Xudoyberdiev R.E. va b.,Odam anatomiyasi, Toshkent, Ibn Sino nashriyoti.
45. Xerris 3.C. Metod v strukturalnoy lingvistike // V.A.Zveginsev. Istoriya yazыkoznaniya XIX i XX vekov v ocherkax i izvlecheniyax. Chast II. M., 1960. S.
46. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojisv A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
47. Shcherbak A.M. Sravnitelnaya fonetika tyurkskix yazыkov. -L.: Nauka. 1970.
48. Щerba L.V. Ocherednыe problemы yazыkoznaniya. Izv. Akademii Nauk, OLYa, 1945. T.4, Vыp. 5.
49. Щerba L.V. Russkie glasnыe v kachestvennom i kolichestvetnom otnoshenii. - S.-Peterburg:,1912.
50. Щerba L.V. Fonetika fransuzskogo yazыka. Chast 1-teoreticheskaya. Glava 1. Vvedenie. V. Chto takoe zvuk rechi? // Istoriya ... yazыkoznaniya. Xrestomatiya. M.: Vыsshaya shkola, 1988.
51. Yakobson P.O., Fant G.M., Xalle M. Vvedenie v analiz rechi // Novoe v lingvistike. Vыp. I. 1962.